



## **“BOBURNOMA”DA TASVIRIY SAN’AT JANRLARI**

**Xusainova Marg‘uba Tuxliyevna,**  
*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy  
rassomchilik va dizayn instituti San’atshunoslik  
(tasviriy va amaliy) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207458>

***Annotatsiya:** Bobur – shahanshoh, shoir, adabiyotshunos, tilshunos, etnograf, san’atshunos, hayvonot va tabobot olamining bilimdoni edi. “Boburnoma” asari bunga yaqqol misol bo‘ladi. “Boburnoma” ilm-fanning ko‘plab sohalari haqida ma’lumot beruvchi qomusiy asar hisoblanadi. Ushbu maqolada asardagi tasviriy san’at janrlarining ko‘rinishi to‘g‘risida so‘z boradi. Jumladan, portret, peyzaj, animalizm, batal – jang janrlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, portret, peyzaj, animalistik, batal-jang, janr.*

Kirish. “Boburnoma” Temuriylar tarixi haqidagi yirik manba bo‘lib, asar voqealari 12 yoshlik kichkina Boburning hukmdor bo‘lganidan boshlanadi. Unda Bobur o‘z hayotidagi ko‘rgan-kechirganlari, janglari, yurishlari, qadami yetgan shahar va maskanlari haqida qiziqarli ma’lumotlarni qoldiradi. Asardagi bosh qahramon – Boburning o‘zi bo‘lib, “Boburnoma”da uning shaxs sifatidagi hayoti qisqa, sodda ko‘rinishda tasvirlangan.

Bobur shoir, hattot, olim bo‘lishi bilan bir qatorda rassomlikka juda qiziqqan. “Boburnoma”dan ma’lumki, u tabiat manzaralarini, odamlar qiyofasini usta rassomlardek tasvirlagan. Bundan tashqari “Boburnoma”da to‘rtta hirotlik va samarqandlik rassomlar – mashhur ustod Kamoliddin Behzod, Shohmuzaffar, Boysunqur (Sulton Mahmud mirzo o‘g‘li), Haydar mirzolarining nomlari tilga olingan. Masalan, “Musavvirlardan Behzod edi. Musavvirlik ishini o‘ta nozik qiladi. Lekin soqolsiz kishi chehrasini yomon chizadi. Baqbaqasini ko‘p uzun tortadi. Soqollik kishini xushchehra qilib yuboradi.” Shohmuzaffar haqida shunday bayon etadi: “Yana, Shohmuzaffar edi. Rangtasvirni ko‘p nozik qilar edi. Soqolni ham o‘ta nozik chizardi. Ko‘p umr ko‘rmadi. Uning tasavvufga oid bir asarlari bor, yomon emas. Aftidan, ayrim fikrlar uning o‘ziniki emas. Ayni o‘sayotgan davrda olamdan o‘tdi” [196 b].

Asarda bir necha yuz tarixiy shaxslar, adabiyot va san’at ahllari, din peshvolari, shox va shaxzodalar, beklar, amiru umarolar haqida ma’lumotlar uchraydi. Muallif ularning shakl-shamoyili (ko‘rinishi), nasl-nasabi, ma’naviy qiyofasi, g‘oliblik va mag‘lublik ruhiy holatini aniq, chiroyli tarzda tasvirlab bergan. Hatti-harakat va

## “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



faoliyatlarini badiiy tasvirlash orqali esa xulq-atvorlari ochib berilgan. Bobur ularning yashash tarzi, fe'l-atvorlarining eng muhim jihatlarini aniq va lo'nda ifodalashga harakat qilgan.

“Boburnoma”da muallif tomonidan eng ko‘p tilga olingan hukmdorlardan biri bu Shayboniyxondir. Muallif Shayboniyxon shaxsiyatiga baho berarkan, uning siyosiy hayotida tutgan o‘rni, xarakteri, makkor lashkarboshi, atrofidagilarni qo‘rquvga soladigan shaxs sifatida qiyofasini yaratadi. “Boburnoma”da bayon qilinishicha: “...Shayboqxonidan xunuk hatti-harakat va yaramas qiliqlar Hirotda sodir bo‘ldi... Yana Mullo Sultonali Mashhadiy bilan Behzod musavvirning tasviri va xatiga qalam tegizib, isloh qildi...” [222 b]. Tarixdan bizga ma’lumki, Behzod musavvir sifatida, Sulton Husayn saroyida xizmat qilgan. 1487-yil Sulton Husayn farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Kutubxonadagi muzahhib, xalkor, zarko‘b, lavvoh, sahhof, jadvalkash, naqqosh va qog‘ozrezu davotchilar bevosita Behzod rahbarligida ishlaganlar. Keyinchalik bu joy o‘z davrining badiiy akademiyasiga aylanadi. 1507 – 1510 yillarda Behzod Hirotni egallagan Muhammad Shayboniyxon xizmatida bo‘lgan [2]. (*Izoh uchun*) Bu tasviriy san’atning portret janri bo‘lib, tasviriy san’at darslarida qullanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Asarda nafaqat hukmdor va harbiy amaldorlarni, balki ayollar badiiy tasvirini ham ko‘ramiz. Jumladan, muallif ulug‘ onasi Eson Davletbegim, Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim og‘a, Malika Bu‘a obrazlari misolida saroy, davlat, ra’iyat ishlarida yuqori mavqega ega ayollarni ko‘rsatadi. Bobur bergan ma’lumotlarda bu ayollarning mulk, millat ishlariga, podshoh va shahzodalar hayotiga bo‘lgan ta’sir kuchlarini ham ta’kidlab o‘tadi... Bobur onasi Qutlug‘ Nigorxonimni “Boburnoma”da o‘ndan ortiq ma’lumotlarda tilga oladi. Asarda “mening volidam”, “mening onam”, “volidam”, “volidaxonim”, “onam”, “onam xonim” kabi jumla va birikmalari bilan eng ko‘p tasvirga olgan ayol obrazi ham aslida onasidir. Asarda “ulug‘ onam” deb atagan Eson davlatbegim haqida ham ajoyib ma’lumotlar bor. Bobur ulug‘ onasiga bo‘lgan muhabbati va hurmatini izhor etib: “Xotunlar orasida fikrlash va tadbirda ulug‘onam Eson davlatbegimga yetadigani kam edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Muhim ishlar ko‘proq ularning kengashi bilan bo‘lardi.”-deb yozadi[36 b]. Biz bilamizki, tasviriy san’atda ayol-ona obrazi eskirmas mavzulardan biri.

Asarda biror tarixiy voqea bayonidan oldin yoki bayon jarayonida chekinilib shu voqea yuz berayotgan joy tasvirlanadi. O‘quvchining ko‘z oldida Bobur zamonidagi



Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindiston o‘lkalari ulardagi ko‘plab viloyatlar, shahar va qishloqlarning manzarasi, yer, suv va tog‘u cho‘llari, dala dashtlari, bog‘u rog‘lari, ekinzorlar, ob-havosi, odamlari, qabila va xalqlarning urf odatlari, turmush tarzi, kiyinishi, tiligacha namoyon bo‘ladi. Asarda qo‘yidagi tasvirni ko‘rishimiz mumkin, “ U Bog‘i Vafo deb nomlangan, soyga tutash; soy qurg‘on bilan bog‘ orasidadir... Bog‘ning o‘rtasida bir kichikroq tepalik yastangan; bir tegirmon suvi bu bog‘ning o‘rtasidan va bog‘ning ichidagi tepalikning ustidan hamisha oqib turadi. Bog‘ o‘rtasidagi chorchaman (to‘rtburchak gulzor) shu tepalik ustida barpo etilgan”. [144-bet]. Muallif asarda Afg‘oniston tog‘larini chiroyli tasvirlagan: “Bu kentlardan quyiroq – dashtdan bir-bir yarim kuro‘h yuqoriroqda, tog‘ tubida chashma oqib yotadi... Bu chashmada va uning atrofida uch nav daraxt o‘sgan. Chashmaning o‘rtasida qalin chinor daraxtlari bor. Latif soya tashlab turadi. Chashmaning ikki tarafida – tog‘ tubidagi qirlarda qalin boshqa balut daraxtlari o‘sadi. Qobulning g‘arbiy tog‘ida bu ikki bo‘lak balutzordan boshqa joyda balut daraxti also uchramaydi. Chashmaning oldida, dasht tarafida, qalin arg‘uvonzor yastangan...” [148 b]. Bu tasvir hozirgi Afg‘oniston mamlakatiga taalluqli. 149-betda ulug‘ shoir hayratlanib gullarga, gulzorga ta‘rif beradi: “ Sariq arg‘uvon bilan qizil arg‘uvon tog‘ etaklarida chaman bo‘lib ochiladi... G‘aroyib gulzorlar ma‘juniylikda tabarruj qildik. Tarrohlik qilg‘andek bu tepaning olti tarafida bir daf‘a sariq va bir daf‘a arg‘uvoniy gul hat-hash musaddas (*arabcha: oltilik*) shaklda ochilibtur.” Bu tasviriy san‘atning peyzaj janriga to‘g‘ri keladi.

“Boburnoma”da tasviriy san‘atning animalistizm ((*lat. hayvon*) - *tasviriy san‘at janri, uning asosiy motivi va ob‘ekti hayvonlardir.vik.*) janrini ham ko‘ramiz. Masalan: “Payshanba kuni, oyning o‘n sakkizinchisida Bajavr bilan Gandoval orasidagi tog‘da ov qildik. Bu tog‘ning bug‘u, marali qop-qora bo‘ladi. Quyrug‘i yana o‘zgacha ranglik. Aftidan bundan quyiroqdagi Hindiston bug‘u marallarining hammasi qop-qora bo‘ladi. Ushbu kuni yana bir sariq qush tutildi, u ham qora edi. Ko‘zlari ham qora edi. O‘sha kun burgut bir kiyikni oldi”[237 b].

Tarixdan bizga ma‘lumki, Bobur Hindiston va Afg‘onistonni zabt etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi hamdir. U harbiy sarkarda sifatida umrining oxirigacha bir qancha janglarda bo‘lgan. Shu sababdan, asarda jang sahnalariga keng o‘rin berilgan. Tasviriy san‘atning batal-jang janri bo‘lib, urush, jangu-jadallar mavzusiga bag‘ishlangan asarlar yaratishni nazarda tutadi. Batal janrda asosiy o‘rinni quruqlikda va dengizda bo‘lib o‘tadigan urushlar hamda sarkardalarning yurushlari egallaydi. Rassom jangning alohida muhim yoki xarakterli lahzasini tasvirga olishga, urush



qahramonlarini ko‘rsatishga, ko‘pincha harbiy voqealarning tarixiy mazmunini ochib berishga intiladi, bu esa jang janrini tarixiy janrga yaqinlashtiradi [3]. (*Izoh uchun*)

12 yoshida Bobur otasining o‘rniga taxtga o‘tirishga majbur bo‘ldi. U hukmdor bo‘lgan dastlabki yillarda Temuriy shahzodalar o‘rtasida toju taxt uchun ayovsiz kurash avj oladi. Bobur ham Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi... Uning bolaligi, o‘smirlik va yigitlik, undan keyingi davri ham xavf-xatarda kechdi. “Boburnoma”ni o‘qir ekanmiz, uning qanchalik harbiy san’atga qiziqqaniga guvoh bo‘lamiz. Asarda sulola va saltanatlarning tanazzuliga sabab bo‘lgan urushlar, jang qurol-yarog‘lari, jangga saf tortish va jang usullari haqida bayon etilgan.

Bobur Samarqandni Shayboniyxondan olish uchun ikki marta (1498, 1500 – 1501) yurish qiladi. Lekin bu yurishlar mag‘lubiyat bilan tugaydi. Shundan so‘ng, Bobur o‘ziga sodiq bo‘lgan bir guruh qo‘shini va qarindoshlari bilan Qobul tomonga yo‘l oladi. Asarda quyidagicha keltiriladi: “...Andijonni deb Samarqandni qo‘ldan berdik. Andijon ham qo‘ldan chiqqan edi. “G‘ofil u yerdan quvilgan va bu yerdan ayrilgan”, deganlaridek bo‘ldik. Ko‘p mushkul va mashaqqatda qoldik...” [65 b]. Bu voqeani Boburning qizi Gulbadanbegim o‘zinnig mashhur “Xumoyunnoma” asarida quyidagicha keltirgan: “To‘liq o‘n bir yil davomida, Movarounnahr o‘lkasida chig‘atoy sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qildilarki, ularning sonini to‘la bayon qilishga qalam tili ojiz va nuqsonlidir... Ikki yuz kishi piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo‘llarida tayoq bo‘lgani holda, beyaroq, Hudoga tavakkal qilib, Badaxshon va Qobulga qarab yo‘l oldilar”[4].

Bobur Afg‘oniston hududida olib borilgan kurashlar va janglarning tasvirini mohirona to‘liq tasvirilaydi. Kuchlarni to‘plab olishda Bobur Mirzoga katta imkoniyat yaratib berishi mumkin bo‘lgan imkoniyat bu Kandahor viloyati edi. U tarafga yurishni tezlashtirgan sabablaridan biri o‘z elchisining Kandahor hokimi aka-uka Muqim va Shohbeklar tomonidan haqoratomuz kutib olinib, ularning qo‘liga Bobur Mirzo nomiga bepisandlarcha xat tutqazilishi bo‘ldi. “Qishloqiligining biri shu ediki, Shohbekning menga bitilgan xati orqasida beklar beklarga, aniqrog‘i ulug‘roq martabalik beklar kichiqroq mansablik beklarga muhr bosadigan joyda – qog‘oz o‘rtasiga muhr bosib yuboripti...” [224 b]. Bu maktub Bobur shaxsiyatiga tegadigan havolanish, haqoratlar mazmunini o‘zida jam qilishi uni bu g‘anim aka-ukalar bilan tezroq hisob-kitob qilishga undadi. Shuningdek, Bobur Mirzo ilk bor qo‘shinini harbiy isloh qilishni Kandahor yurishi oldidan amalga oshirganligini “Boburnoma”da

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



qayd etgan: “Hech vaqt buncha tartib va intizom bilan saf tuzmasdim. Hossa tobinga (*bu shohning maxsus bahodirlardan iborat harbiy qismi*) qo‘lidan ish keladigan yigitlarni ajratib olgan edim: o‘n-o‘n, ellik-ellik qilinib, o‘n boshi va ellik boshini tayin qildim. Har o‘n va ellik va so‘l qo‘llarda turar yerlarni bilib, urush paytida qiladigan ishlarini aniqlab, hozir va nozir edilar. O‘ng qanot, so‘l qanot va o‘ng qo‘l va so‘l qo‘l, o‘ng yon va so‘l yon jadal otlangach, xabarchi lashkar qism ham qiynalmay tayinlangan yerga tomon yura berdilar.” [225 b]

Xulosa. “Boburnoma”da o‘sha davr artilleriyasi – to‘plar, o‘qotar qurollar bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan ikki shaxs nomi tilga olinadi. Ulardan biri – Ustod Aliquli, ma’dandan qazon, ya’ni to‘p (*zambarak*) quyuvchi usta, ikkinchisi – Mustafo Rumi, u “Rum dasturi bila aroba”, ya’ni Ovro‘pocha usulda to‘p tagiga o‘rnatiladigan g‘ildirakli arava va farangiy – Ovro‘po rusumidagi to‘plarni yasash bo‘yicha mutaxassis. Ana shu ikki mutaxassis boshchiligida Bobur o‘rdusida (lashkar) to‘pchi va miltiqchilardan iborat maxsus guruh bor edi.

“Boburnoma” qo‘lyozmalarining chiroyli rasmlar bilan bezatilishi ham tarjimaning shuhrat qozonishiga sabab bo‘lgan. Akbarshoh saroyida 104 nafar rassom doimiy ish olib borgan. Tarjimon Abdurahimxonning o‘zi ham rasm chizish bilan shug‘ullangan. Akbar saroyida o‘nlab kitoblarga rasmlar chizilgan. “Boburnoma”ning forsiy nusxalariga ishlangan miniatyuralar Sharq rassomlik san’atining ajoyib namunalari hisoblanadi. Miniaturalarda ko‘plab jang-batal janrida ishlangan Boburiylar sulolasining yurishlari va jang sahnalari tasviri mavjud. “Boburnoma” miniatyuralarini mavzuiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin: tarixiy epizodlar – 15 miniatyura (4, 7, 11, 12, 16, 17, 21, 23, 28, 29, 47, 87, 88). , 95, 96); kundalik sahnalar — 13 ta miniatyura (5, 6, 24, 25, 26, 27, 48, 49, 54, 90, 92, 93, 94); harbiy epizodlar - 20 miniatyura (8, 9, 10, 13, 14, 15, 18, 19, 20, 22, 30, 31, 38, 39, 40, 41, 44, 53, 89, 91); ov sahnalari - 6 ta miniatyura (42, 43, 46, 50, 51, 52); bayramlar - 7 ta miniatyura (32, 33, 34, 35, 36, 37, 45); sushi hayvonlari - 5 ta miniatyura (55, 56, 57, 58, 59); qushlar — 12 ta miniatyura (60, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 71); dengiz hayvonlari - 4 ta miniatyura (72, 73, 74, 75); flora — 11 ta miniatyura (76, 77, 78, 79, 80, 81, 82, 83, 84, 85, 86). Barcha miniatyuralardan bor-yo‘gi 20 tasi harbiy epizod va janglarga bag‘ishlangan bo‘lsa, qolgan 73 tasi Hindistonning tarixiy epizodlari, hayoti, ov manzaralari, bayramlari, hayvonot va o‘simlik dunyosini yorqin va ishonchli tarzda aks ettiradi.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Boburnoma” (196-222 -36-14- 237-196-65-148-224-225-379-betlar) Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo‘jayeveva tabdili. Toshkent “O‘zbekiston” 2019
2. <https://e-tarix.uz/shaxslar/642-maqola.html>.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Gulbadanbegim, Humoyunnoma, Toshkent, O‘zFA nashriyoti, 1959. 24-25 b.

